



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI FAR'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **36,4** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,5** mingtaga kamaygan yoki **19,0 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,1** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023- yilning yanvar-sentabrida **6,3** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,9 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2019-2023- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.		2023- y.
2252	Oltiariq tumani	2023
1421	Qo'shtepa tumani	1278
1627	Bag'dod tumani	1349
2102	Buvayda tumani	1571
1525	Beshariq tumani	1246
2031	Quva tumani	1759
2273	Uchko'prik tumani	1876
1541	Rishton tumani	1371
1084	So'x tumani	977
2158	Toshloq tumani	1807
2124	O'zbekiston tumani	1614
1732	Farg'ona tumani	1583
2286	Dang'ara tumani	1745
1142	Furqat tumani	972
935	Yozyovon tumani	861
7428	Farg'ona shahar	5838
5383	Qo'qon shahar	3830
1578	Quvasoy shahar	1440
4260	Marg'ilon shahar	3219

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **36 359** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **6 317** tani tashkil etdi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Farg'ona shahrida **5 838** tani yoki jamiga nisbatan **16,1 %** ni tashkil etdi.

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Farg‘ona sh	18,4
Quvasoy sh	14,5
Marg‘ilon sh	13,0
Qo‘qon sh	12,6
So‘x t	11,9
Dang‘ara t	10,0
Oltiariq t	9,0
Toshloq t	8,4
Uchko‘prik t	7,9
Furqat t	7,8
Yozyovon t	7,3
Farg‘ona t	7,3
O‘zbekiston t	7,0
Quva t	6,5
Buvayda t	6,5
Rishton t	6,4
Qo‘sh tepa t	6,2
Bag‘dod t	5,9
Beshariq t	5,2

Farg‘ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1 oktabr holatiga, birlikda



2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **11,9** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan **3,3** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona shahrida **18,4** birlik, Quvasoy shahrida **14,5** birlik, Qo‘qon shahrida **12,6** birlik, So‘x tumanida **11,9** birlik va Dang‘ara tumanida **10,0** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Fargʻona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori koʻrsatkich

Fargʻona shahar
– 18,4 birlik.

Oʻrta koʻrsatkich

Furqat tumani
– 7,8 birlik.

Eng past koʻrsatkich

Beshariq tumani
– 5,2 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori koʻrsatkich Fargʻona shahrida **18,4** birlik, Quvasoy shahrida **14,5** Margʻilon shahrida **13,0** birlik, Qoʻqon shahrida **12,6** birlik, Soʻx tumanida **11,9** birlik, Dangʻara tumanida **10,0** birlik, Oltiariq tumanida **9,0** birlik, Toshloq tumanida **8,4** birlik, Uchkoʻprik tumanida **7,9** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, oʻzi tavakkal qilib va oʻz mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan toʻgʻri keladigan tadbirkorlik subyektlarining koʻp tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Fargʻona shahri

18,4

Margʻilon shahri

13,0

Soʻx tumani

11,9

Quvasoy shahri

14,5

Qoʻqon shahri

12,6

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

341	Oltiariq t.	308
270	Qo'shtepa t.	246
289	Bag'dod t.	251
338	Buvayda t.	265
337	Beshariq t.	225
291	Quva t.	363
279	Uchko'prik t.	247
299	Rishton t.	224
183	So'x t.	179
402	Toshloq t.	394
331	O'zbekiston t.	247
266	Farg'ona t.	211
353	Dang'ara t.	302
198	Furqat t.	182
181	Yozyovon t.	190
934	Farg'ona sh.	1 144
621	Qo'qon sh.	499
253	Quvasoy sh.	384
406	Marg'ilon sh.	456

2023- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Farg'ona sh.	18,1
Qo'qon sh.	7,9
Marg'ilon sh.	7,2
Toshloq t.	6,2
Quvasoy sh.	6,1
Quva t.	5,7
Oltiariq t.	4,9
Dang'ara t.	4,8
Buvayda t.	4,2
Bog'dod t.	4,0
Uchko'prik t.	3,9
O'zbekiston t.	3,9
Qo'shtepa t.	3,9
Beshariq t.	3,6
Rishton t.	3,5
Farg'ona t.	3,3
Yozyovon t.	3,0
Furqat t.	2,9
So'x t.	2,8

2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – **18,1** %, Qo'qon shahri – **7,9** %, Marg'ilon shahri – **7,2** %, Toshloq tumani – **6,2** %, Quvasoy shahri – **6,1** %, Quva tumani – **5,7** %, Oltiariq tumani – **4,9** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2022-2023- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa xizmatlar

■ 2022- y. ■ 2023- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




■ 2022- y. ■ 2023- y.

2023- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 2 594 ta, sanoatda 1 397 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 567 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Farg'ona shahrida 1 144 ta, Qo'qon shahrida 499 ta hamda Marg'ilon shahrida 456 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida Farg'ona viloyatida jami **30 557** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **13 278** (yoki **43,5 %**) ta, sanoat sohasida – **7 166** (yoki **23,5 %**) ta, xizmatlar sohasida – **6 231** (yoki **20,4 %**) ta, qurilish sohasida – **2 023** (yoki **6,6 %**) ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **1 859** (yoki **6,1 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2022- y. ■ 2023- y.




■ 2022- y. ■ 2023- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-sentabrida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,6** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **0,6** punktga ko'paygan.




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,3** % ni, qishloq xo'jaligida **96,8** % ni, yo'lovchi tashishda **96,1** % ni, yuk aylanmasida **94,2** % yuk tashishda **92,4** % ni, chakana savdoda **91,4** %, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Farg'ona sh	1822,6
Qo'qon sh	1577,2
Marg'ilon sh	932,1
Quvasoy sh	397,2
Uchko'prik t	1392,6
Qo'shtepa t	771,3
Beshariq t	566,3
Dang'ara t	526,8
Bag'dod t	426,1
O'zbekiston t	395,1
Buvayda t	366,8
Furqat t	319,2
Toshloq t	314,4
Oltiariq t	312,1
Quva t	238,2
Rishton t	183,9
Farg'ona t	183,8
Yozyovon t	162,8
So'x t	77,5

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **10 966,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahri (**1 822,6** mlrd. so'm), Qo'qon (**1 577,2** mlrd. so'm), Marg'ilon (**932,1** mlrd.so'm), Uchko'prik tumani (**1 392,6** mlrd.so'm), Qo'shtepa (**771,3** mlrd. so'm) va Beshariq (**566,3** mlrd. so'm) shahar va tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. So'x tumanida (**77,5** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega shahar va tumanlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2023- yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **45,8 %** ni tashkil etdi.




2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahri (96,1 %), Dang'ara tumani (77,3 %), Beshariq tumani (75,9 %), Buvayda tumani (74,1 %), Uchko'prik tumani (72,0 %), Rishton tumani (66,0 %), va Bag'dod tumani (65,3%) tashkil etdi.

So'x t	100,0
Furqat t	100,0
Yozyov...	100,0
Marg'ilo...	96,1
Dang'ara t	77,3
Beshariq t	75,9
Buvayda t	74,1
Uchko'p...	72,0
Rishton t	66,0
Bag'dod t	65,3
O'zbeki...	55,1
Oltiariq t	52,1
Qo'shte...	49,2
Quva t	47,0
Qo'qon sh	37,3
Quvaso...	33,8
Farg'on...	28,9
Farg'ona t	24,7
Toshloq t	17,7

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Farg'ona sh	1695,5	86,2
Qo'qon sh	541,4	87,9
Quvasoy sh	171,0	97,7
Marg'ilon sh	392,3	45,4
Farg'ona t	417,8	75,2
Toshloq t	307,2	99,7
Oltiariq t	276,7	99,7
Quva t	229,0	69,9
Bag'dod t	220,0	91,2
Buvayda t	208,8	88,8
Qo'shtepa t	200,3	65,3
Uchko'prik t	184,6	99,8
O'zbekiston t	154,8	51,1
Yozyovon t	139,9	81,1
Rishton t	127,4	99,6
Dang'ara t	126,1	64,2
Furqat t	124,5	99,7
So'x t	116,0	99,1
Beshariq t	94,7	89,9

hajmi, mlrd.
so'mda


ulushi, % da

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5 728,0 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 79,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (1 695,5 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (541,4 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (417,8 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (392,3 mlrd. so'm), Toshloq tumani (307,2 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (276,7 mlrd. so'm) hamda Bag'dod (220,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **8 689,0** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **61,8 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **113,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Farg'ona shahri (**1 491,8** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**921,8** mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (**914,6** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**717,1** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**640,2** mlrd. so'm), O'zbekiston tumani (**552,3** mlrd. so'm), Oltiariq tumani (**547,2** mlrd. so'm) qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **26,3** trln. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,8** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **111,7** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Oltiariq tumani (2 110,6 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (2 014,5 mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (1 859,4 mlrd. so'm), Rishton tumani (1 824,1 mlrd. so'm), Quva tumani (1 768,0 mlrd. so'm) hamda Buvayda (1 677,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Oltiariq t	2,1	98,0
Qo'shtepa t	1,9	98,1
Bag'dod t	1,8	97,7
Buvayda t	1,7	100,0
Beshariq t	1,9	97,0
Quva t	1,8	99,1
Uchko'prik t	1,6	99,9
Rishton t	1,8	98,4
So'x t	0,4	93,5
Toshloq t	1,6	98,2
O'zbekiston t	1,6	98,9
Farg'ona t	2,0	83,4
Dang'ara t	1,4	99,1
Furqat t	1,1	100,0
Yozyovon t	1,0	97,1
Farg'ona sh	0,6	92,1
Qo'qon sh	0,2	94,9
Quvasoy sh	1,3	95,0
Marg'ilon sh	0,4	100,0

hajmi, trln. so'mda 
ulushi, % da 

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **15 270,1** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,4 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **106,0 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Oltiariq t	545,1	93,7
Qo'shtepa t	395,0	98,1
Bag'dod t	411,8	96,8
Buvayda t	710,4	97,2
Beshariq t	600,1	97,5
Quva t	828,1	98,0
Uchko'prik t	821,6	61,1
Rishton t	451,0	96,6
So'x t	175,0	98,5
Toshloq t	340,8	98,1
O'zbekiston t	333,6	96,0
Farg'ona t	445,0	98,3
Dang'ara t	375,6	97,0
Furqat t	244,8	97,7
Yozyovon t	289,2	97,8
Farg'ona sh	2815,2	86,9
Qo'qon sh	2802,5	92,5
Quvasoy sh	270,0	93,5
Marg'ilon sh	2415,4	97,8

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg'ona shahri (**2 815,2** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**2 802,5** mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (**2 415,4** mlrd. so'm), Quva tumani (**828,1** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**821,6** mlrd. so'm), Buvayda tumani (**710,4** mlrd. so'm) va Beshariq (**600,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **12 435,5** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,2 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **107,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona sh. (**2 981,9** mlrd. so'm), Qo'qon sh. (**2 328,0** mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (**1 420,9** mlrd. so'm), Oltiariq tumani (**695,7** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**496,8** mlrd. so'm), Farg'ona tumani (**420,0** mlrd so'm) va Buvayda tumani (**399,6** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-sentabr oylarida)

5 725,4	Savdo xizmatlari	30,0
4 128,2	Moliyaviy xizmatlar	21,7
3 511,2	Transport xizmatlari	18,4
1 027,6	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,4
937,3	Shaxsiy xizmatlar	4,9
855,3	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,5
492,3	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,6
468,4	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,5
427,6	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,2
401,3	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,1
363,0	Ijara xizmatlari	1,9
165,0	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,9
559,3	Boshqa xizmatlar	2,9

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **49,9 %** (1 934,4 mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **15,2 %** (589,5 mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish xizmatlarida **7,6 %** (294,2 mlrd. so'm) hamda boshqa xizmatlarda **7,4 %** (288,3 mlrd.so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi shaxsiy xizmatlarda **0,6 %** (23,8 mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2018 г. 2019 г. 2020 г. 2021 г. 2022 г. 2023 г.

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Farg'ona sh.	44,0	56,3
Qo'qon sh.	57,5	56,8
Quvasoy sh.	17,2	84,8
Marg'ilon sh	16,2	99,7
Oltiariq t.	100,0	97,2
Qo'shtepa t.	62,5	56,0
Bag'dod t.	15,0	70,9
Buvayda t.	11,8	71,1
Beshariq t.	12,4	56,0
Quva t.	26,6	54,1
Uchko'prik t.	54,1	87,3
Rishton t.	8,8	46,4
So'x t.	4,7	100,0
Toshloq t.	42,3	30,1
O'zbekiston t.	13,0	47,6
Farg'ona t.	11,0	43,9
Dang'ara t.	16,1	77,1
Furqat t.	5,7	100,0
Yozyovon t.	3,8	100,0

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **523 475,8** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **68,9** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida – **100,0** %, Furqat tumanida – **100,0** %, Yozyovon tumanida – **100,0** %, Marg'ilon shaxrida – **99,7** %, Oltiariq tumanida – **97,2** %, Uchko'prik tumanida – **87,3** %, Quvasoy shahrida – **84,8** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – **30,1** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **964 403,5** million AQSH dollarini yoki jami importning **82,5%** ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Oltiariq tumanida – **100,0** %, So'x tumanida – **100,0**%, Furqat tumanida – **100,0** %, Yozyovon tumanida – **100,0** %, Marg'ilon shahrida – **99,9** %, Dang'ara tumanida – **96,9**%, hamda Buvayda tumanida **96,1** % ni tashkil etdi.

Oltiariq t	100,0
Qo'shtepa t	79,8
Bag'dod t	68,1
Buvayda t	96,1
Beshariq t	96,0
Quva t	59,9
Uchko'prik t	76,7
Rishton t	35,6
So'x t	100,0
Toshloq t	90,7
O'zbekiston t	87,5
Farg'ona t	86,7
Dang'ara t	96,9
Furqat t	100,0
Yozyovon t	100,0
Farg'ona sh	58,3
Qo'qon sh	89,4
Quvasoy sh	86,4
Marg'ilon sh	99,9


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



92,4 %

Yuk
tashishda


2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,2 %** ni tashkil qildi.



94,2 %

Yuk
aylanmasida


2023- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,2 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,0%** ni tashkil qildi.



96,1 %

Yo'lovchi
tashishda

2023- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,1 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,6%** ni tashkil qildi.




97,3 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,3%** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,2 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 832** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **673 (36,7 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **1 054 (57,5 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **105 (5,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **39,2 % (719 ta)**, xizmatlar sohasida – **28,9% (530 ta)**, sanoatda – **19,5 % (358 ta)**, qurilishda – **9,3 % (171 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2,9 % (54 ta)**ni tashkil etdi.

2023- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

118	Oltiariq tumani	6,4
40	Qo'shtepa tumani	2,2
65	Bag'dod tumani	3,5
67	Buvayda tumani	3,7
65	Beshariq tumani	5,5
81	Quva tumani	4,4
108	Uchko'prik tumani	5,9
70	Rishton tumani	3,8
49	So'x tumani	2,7
67	Toshloq tumani	3,7
71	O'zbekiston tumani	3,9
86	Farg'ona tumani	4,7
78	Dang'ara tumani	4,3
51	Furqat tumani	2,8
46	Yozyovon tumani	2,5
327	Farg'ona sh.	17,8
210	Qo'qon sh.	11,5
66	Quvasoy sh.	3,6
167	Marg'ilon sh.	9,1


Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona shahri (327 ta), Qo'qon shahri (210 ta), Marg'ilon shahri (167 ta), Oltiariq (118 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning III choragida 776 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragiga kelib esa 673 taga yetgan yoki 2019- yilning III choragiga nisbatan 103 taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda 697 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida 1 054 ta yoki 357 taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda 35 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib 105 tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan 70 taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning III choragida **1 079** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragiga kelib esa **671** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **408** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning III choragida **421** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning I choragida **1 111** ta yoki **690** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019- yilning III choragida **8** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **49** tani tashkil etib, **41** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **51,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **36,7** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **14,8** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilda **46,2** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragida **57,6** % yoki **11,4** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **2,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **5,7** % ga yetgan yoki **3,4** % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **71,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **47,6** % ga yetgan yoki 2019- yilning **III** choragida nisbatan **24,0** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning III choragida **27,9** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida **49,9** % yoki **22,0** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning III choragida **0,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning **III** choragiga kelib, bu ko'rsatkich **2,5** % yoki **2,0** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **39,2** % ni, savdoda – **38,0** % ni, xizmatlar sohasida – **37,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **63,0** % ni, sanoatda – **60,3** % ni, xizmatlar sohasida – **57,7** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – **7,6** % ni, sanoatda – **7,5** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5,5** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **50,9** % ni, qishloq, xizmatlar sohasida – **49,8**% ni va savdoda – **48,3** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **56,7** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **51,9** % ni, xizmatlar sohasida – **46,2** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **3,2** % ni, xizmatlar sohasida – **2,3**% qurilishda – **2,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	41,6	51,9	6,5
Band bo'lganlar soni	20,3	75,8	3,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	32,5	62,7	4,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	28,6	66,0	5,4
Raqobat muhiti	39,8	57,6	2,6

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	41,2	55,7	3,1
Band bo'lganlar soni	21,5	75,8	2,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	30,3	65,4	4,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	26,3	69,9	3,8
Raqobat muhiti	36,7	60,6	2,7


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli